

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOIIY MOSLASHUVINI TA'MINLASHDA KOOPERATIV O'QITISH VA JAMOAVIIY O'YINLAR TEXNOLOGIYASINING RO'LI

*Mualliflar: KIUT Namangan filiali "Pedagogika
va psixologiya" kafedrası katta o'qituvchisi*

Jurayeva Mushtariy Muhaydinovna

Rustamova Oydina Ravshan qizi

KIUT Namangan filiali "Boshlang'ich ta'lim"

yo'nalishi Kunduzgi bosqich 4-kurs talabasi

Telefon raqami: +99893 852-12-89

+99891 765-56-96

E-mail: mushtariy.jurayeva@mail.ru

rustamovaoydina2@gmail.com

Annotatsiya

Usbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda kooperativ o'qitish jamoaviy o'yinlar texnologiyasining pedagogik ahamiyati yoritilgan. Kooperativ topshiriqlar va jamoaviy o'yinlar ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishi, bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rivovlantirishi ilmiy manbalar hamda amaliy misollar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari mazkur texnologiyalar sinf ichidagi ijobiy psixologik iqlimni shakllantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ijtimoiy moslashuv, kooperativ o'qitish, jamoaviy o'yinlar, boshlang'ich ta'lim.

Аннотация

В данной статье рассмотрена роль кооперативного обучения и групповых игр в обеспечении социальной адаптации учащихся начальных классов в условиях инклюзивного образования. На основе научных источников и практических примеров показано, что данные технологии способствуют развитию сотрудничества, коммуникации и успешной социальной интеграции детей. Результаты исследования подтверждают их эффективность в формировании позитивного психологического климата в классе.

Ключевые слова: инклюзивное образование, социальная адаптация, кооперативное обучение, групповые игры, начальная школа.

Abstract

This article analyzes the pedagogical role of cooperative learning and group games in fostering the social adaptation of primary school students in inclusive education. Cooperative tasks and team-based games were examined through scientific

literature and practical examples, demonstrating their effectiveness in enhancing communication, collaboration, and social integration. The findings show that these methods significantly improve the psychological climate and promote successful social inclusion.

Keywords: inclusive education, social adaptation, cooperative learning, group games, primary school.

Kirish

Hozirgi davrda inklyuziv ta'lim jadal rivojlanib borayotgan ta'lim tizimlaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta'minlash -inklyuziv sinfnig eng muhim vazifalaridan sanaladi. Aqliy, jismoniy yoki sensor rivojlanishida turli ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar sinf jamoasiga samarali qo'shila olishi uchun ularning ijtimoiy-emotsional rivoji qo'llab-quvvatlanishi zarur. Su nuqtayi nazardan, kooperativ o'qitish va jamoaviy o'yinlar texnologiyasi ijtimoiylashuvini kuchaytirishda samarali pedagogik metod hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. **Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev** ta'kidlaganlaridek: "Hech bir bola ta'limdan chetda qolmasligi kerak. Bolalarning imkoniyati turlicha bo'lishi mumkin, ammo ularning ta'lim olish huquqi hech qachon cheklanmasligi lozim." Ushbu fikrlar inklyuziv ta'limning davlat miqyosida nechog'lik muhim va ustuvor yo'nalish ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Inklyuziv ta'limga o'tish nafaqat pedagogik o'zgarish, balki sotsial adolat va inson huquqlarining ta'lim sohasidagi amaliy ifodasidir. Bu borada **Vygotskiyning** "ijtimoiy -madaniy rivojlanish" nazariyasi asosiy tamoyil bo'lib xizmat qiladi, chunki u bolaning rivojlanishi ijtimoiy o'zaro munosabatlar va hamkorlikda amalga oshishini ta'kidlaydi. Inklyuziv sinf ana shunday qo'llab -quvvatlovchi ijtimoiy muhitni yaratadi.

Yevropalik olim **G. Brunerning** konstruktivistik yondashuvi o'quvchining bilimini muloqot jarayonida o'zlashtirishini e'tirof etib, o'yin faoliyati va guruhli topshiriqlarni boshlang'ich ta'limning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Brunerning fikricha har bir bola o'yin jarayonida o'zining ijtimoiy rolini topadi va bu ijtimoiy moslashuv uchun asos yaratadi.

Boshlang'ich sinfda kooperativ o'qitish, kichik guruhlarda ishlash va jamoaviy o'yinlar texnologiyasi nafaqat bilim olishni, balki o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Kooperativ o'qitish nazariyasi asoschisi R.Slavinning fikricha **"kooperativ ta'lim usullari bolalar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni kuchaytiradi, sinfda qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitni yaratadi va ijtimoiy moslashuvni sezilarli darajada yaxshilaydi."** Inklyuziv sinflarda aynan mana shu texnologiyalar o'quvchilarining

o'zaro muloqotini faollashtiradi, turli ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning sinf jamoasiga samarali qo'shilishiga ko'mak beradi. Jamoaviy o'yinlar esa bolaning o'ziga ishonchi va tengdoshlari bilan hamkorlik qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar – B. Ziyomammedova, R. Nishonova, Sh. Abdullayevalar o'z ishlarida kooperativ o'qitish texnologiyalari boshlang'ich ta'limda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy moslashuvini tezlashtirishda muhim o'rin tutishini alohida qayd etishgan. Bu ilmiy qarashlar shuni isbotlaydiki, kooperativ o'qitish va jamoaviy o'yinlar sinf jamoasida sog'lom munosabatlarni shakllantiradi, ijtimoiy moslashuv jarayonini jadallashtiradi.

Inklyuziv ta'limda kooperativ o'qitishning ahamiyati

Kooperativ o'qitish -o'quvchilarini juftlik yoki kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashga undaydigan metod bo'lib, u inklyuziv sinfda ijtimoiy integratsiya jarayonini sezilarli darajada faollashtirdi. Ushbu metod quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

- . o'quvchilar o'rtasida ijobiy muloqotni rivojlantiradi;
- . o'zaro yordam va ma'suliyat hissini shakllantiradi;
- . maxsus ehtiyojli o'quvchilarning sinf hayotiga faol qo'shilishiga yordam beradi;

- . ijtimoiy qo'rquv, tortinchoqlik va ajranganlikni kamaytiradi.

Kooperativ topshiriqlar- "Jigsaw", "Think -Pair-Share", "Round-Robin", "Kichik guruhlar muhokamasi" kabi shakllar bolalarda o'z fikrini ayta olish, boshqani eshitish va jamoa manfaatini tushunish ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Bu metod orqali bolalarni faol bo'lishga, tengdoshlariga yordam berishga o'rgatamiz. Har bir guruhda:

- . vazifalarni taqsimlash;
- . ma'suliyatli bajarish;
- . birgalikda muammoni yechimini topish;

jarayonlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Kooperativ usullar orqali sinfda psixologik qulaylik paydo bo'lishi, o'quvchilar o'rtasidagi nizolar kamayishi, hamkorlik tizimi shakllanishi, o'quvchilarning o'zaro ishonchi mustahkamlanadi. Bu esa inklyuziv sinfda barqaror ijtimoiy – psixologik muhitni yaratadi.

Jamoaviy o'yinlarning ijtimoiy moslashuvdagi roli

O'yin-boshlang'ich yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy o'rganish jarayoni. Jamoaviy o'yinlar inklyuziv sinfda quyidagi vazifalarni bajaradi;

- . o'quvchilar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlaydi;
- . ijtimoiy -emotsional kompetensiyalarni rivojlantiradi;

- qoidalar asosida harakat qilish va o'z xatti-harakatini boshqarishni o'rgatadi;
- faol ishtirok etish va o'zini namoyon qilish imkonini yaratadi;
- konfliktlarni hal qilish ko'nikmalarini kuchaytiradi;

Jamoaviy o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda eng samarali pedagogik vositalardan biridir. O'yin jarayonida o'quvchilar bir-biri bilan muloqot qiladi, o'zaro hamkorlikda harakat qiladi.

A.Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bola atrofdagilarning xatti-harakatiga taqlid qilish orqali ijtimoiy tajriba orttiradi. Jamoaviy o'yinlar aynan mana shu jarayonni tabiiy tarzda yaratadi: bola boshqalarni kuzatadi, ularga ergashadi, ulardan o'rnak oladi va asta-sekin ijtimoiy vaziyatlarda o'zini qanday tutishni o'rganadi. Shu bois jamoaviy o'yinlar bolalarning o'zaro muloqot strategiyalarini shakllantirishda amaliy vosita sanaladi.

Kooperativ o'qitish va jamoaviy o'yinlar o'zaro uyg'unligi

Mazkur ikki texnologiyaning o'zaro integratsiyasi inklyuziv sinfda ijtimoiy muhitni yanada kuchaytiradi. O'yinli elementlarga ega kooperativ topshiriqlar o'quvchilarda:

- ijtimoiy faollik,
- hamkorlik
- bag'rikenglik
- kommunikativ madaniyat
- tenglik va hurmat kabi qadriyatlarni shakllantiradi.

Bu esa o'z navbatida inklyuziv sinfnings barqaror ijtimoiy-psixologik muhitni yaratadi.

Kooperativ o'qitish va jamoaviy o'yinlar texnologiyasining uyg'un qo'llanilishi o'quvchilar o'rtasida sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishning eng samarali vositalaridan biri. Har bir bola o'z fikrini erkin bildirish, guruh qaroriga ta'sir ko'rsatish va umumiy natijaga hissa qo'shish imkoniga ega bo'ladi. Bunday o'quv jarayoni o'quvchilarda nafaqat o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, balki ularda quyidagi ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi:

- muammolarni birgalikda hal qilish;
- konstruktiv fikr bildirish va tinglash;
- yetakchilik va tashabbuskorlik;
- guruhda ma'suliyatni bo'lishish;
- munozaralarda madaniyatli ishtirok etish;

Shu tariqa kooperativ o'qitish va jamoaviy o'yinlar texnologiyasining uyg'unligi o'quvchilar shaxsida ijtimoiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar va jamiyatda faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tadqiqotlar natijalari va tahlil

Ko'plab ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha (Slavin, Johnson & Johnson, Vygotsky), bolalar jamoada o'rganayotganda ularning ijtimoiy rivoji individual o'qitishdan ko'ra tezroq shakllanadi. O'zbekiston va xorijiy ta'lim muassalarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari ko'rsatadiki:

- . kooperativ texnologiyalar qo'llanilganda maxsus ehtiyojli bolalar sinf bilan muloqot qilishga tezroq moslashadi;
- . jamoaviy o'yinlar sinfdagi ijobiy iqlimni mustahkamlaydi;
- . o'quvchilar o'zaro yordamga tayyor bo'lishadi;
- . o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari 25-35% ga oshgan (pedagogik kuzatuvlar asosida)

Kooperativ metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar faolligi, darsga bo'lgan qiziqishi va tashabbuskorligi ortadi. Kooperativ topshiriqlar davomida bolalar:

- . bir-biriga tushuntirish,
- . yordamlashish,
- . vazifalarni o'z vaqtida bajarish

Kuzatuv natijalariga ko'ra, dars davomida "bir-biriga yordam berish" o'quvchilar xatti-harakati 40% ga oshgan.

Xulosa

Kooperativ o'qitish va jamoaviy o'yinlar texnologiyasi inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta'minlashning eng samarali metodlari qatoriga kiradi. Ushbu metodlar:

- . hamkorlik,
- . ijtimoiy faollik,
- . muloqot,
- . empatiya,
- . ijobiy sinf iqlimi

kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi va inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlariga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga doimiy kooperativ o'qitishni qo'llash turli xil ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarni umumiy jarayonga samarali integratsiya qilishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-psixologik rivoji tezlashadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlik mustahkamlanadi. Shu bois, mazkur texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish bugungi kunda dolzarb va samarali yechimlaridan biri hisoblanadi.

Kooperativ metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalari – kreativ fikrlash, muammoni hal qilish va jamoada ishlash kabi ko'nikmalar shakllanadi. Kooperativ o'qitish texnologiyalari umumiy ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Johnson, D. W., Johnson, R. T. *Cooperative Learning Theory and Practise*.
2. Slavin, R. E. *Cooperative Learning: Student Teams*.
3. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*.
4. Bronfenbrenner, U. *The Ecology of Human Development*.
5. O'zbekiston Respublikasi "Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi", 2021.
6. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*.
7. Xolmatov X., To'rayev Sh. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*.
8. UNESCO. *Inclusive Education Guidelines*.
9. Bruner, J. (1996). *The Culture of Education*. Cambridge, MA: Harward University Press.
10. Ziyomammedova, B. (2015). *Boshlang'ich ta'limda inovatsion pedagogik texnologiyalar*. Toshkent
11. Nishonova, R. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent : O'qituvchi nashriyoti.
12. Abdullayeva Sh. "Boshlang'ich ta'limda jamoaviy o'yinlar orqali ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish." *Ta'lim va rivojlanish jurnali*, №3